

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

**TALABALARNING BILIM KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHDA O'QUV MOTIVATSIYANING AHAMIYATI**

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Xalilova Shaxlo Ravshanovna

Annotatsiya: Maqolada, Talabalarning bilim ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik kompitentsiyalardan foydalangan holda o'quv motivatsiyaning ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi. Ayniqsa, bu jarayonda kasbiy kompitensiyalardan o'rini foydalanish zaruratlarining muhim xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: bilim, ko'nikma, kompitentsiya, motivatsiya, o'quv motivatsiya, ta'lif jarayoni, pedagogik mahorat .

Аннотация: В статье говорится о значении учебной мотивации использования педагогических компетенций в развитии познавательных умений учащихся. Особенно в этом процессе выделяются важные особенности необходимости надлежащего использования профессиональных компетенций.

Ключевые слова: знания, умения, компетентность, мотивация, учебная мотивация, учебный процесс, педагогическое мастерство.

Summary: The article talks about the importance of educational motivation using pedagogical competencies in the development of students' knowledge skills. Especially, in this process, the important features of the need for appropriate use of professional competences are highlighted.

Keywords: knowledge, skills, competence, motivation, educational motivation, educational process, pedagogical skill.

Bugungi kunda talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli, ijtimoiy-siyosiy hayotda doimo o'z mustaqil fikriga ega, kasb-hunar mahoratini egallagan shaxs sifatida shakllantirish eng dolzarb, yurtimizning bugungi va ertangi hayotini belgilab beruvchi muhim masala hisoblanadi. Shaxsni shakllantirish keng qamrovli tushuncha hisoblanib, unda bevosita ta'lif va tarbiya masalalari ham o'rin olgan.

Respublikamizda yetuk malakali mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lif tizimi ana shunday barkamol shaxsni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. "Ta'lif to'g'risida"gi qonun ta'lilda olib borilayotgan ishlarning bosh mezonii hisoblanadi. Bu mezon asosida takomillashtirilgan, zamon talablariga javob

bera oladigan dasturlar, o‘quv darsliklari yaratilmoqda. Ta’lim muassasalari qayta rekonstruksiya qilinib, zamonaviy andozalar darajasiga tenglashtirilmoqda. Ana shu asosda ta’lim jarayoni ham bevosita shakllantirilib uning samaradorligini oshirishga ahamiyat berilmoqda.

Barchamizga ma'lumki, ta'limda olib borilayotgan ishlarning samarasi bir qancha omillarga: darslarni to‘g‘ri tashkil eta olish, dars jarayonida axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalaridan to‘g‘ri va unumli foydalana olishga bog‘liq. Bu borada hali ko‘pgina muammolar haligacha o‘z yechimini topmagan. Bunday darslarni bir qator muammolarning yechimi (talaba-yoshlarning ijodiy fikrlash, mustaqil fikrashi, ularning faolligini oshirish masalalari) sifatida ko‘ra olmasliklarini aytib o‘tishimiz mumkin.

Ta’lim tizimini takomillashtirish, uning sifat darajasi va samaradorligini oshirish bir qator omillar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’lim jarayonida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Respublikamizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ishlab chiqilgan qonun va farmoyishlar ana shu faktorlarni o‘zida mujassam etganligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Motivlar-didaktik jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Harakatlantiruvchi motivlarni o‘rganish, to‘g‘ri qo‘llash va uni to‘g‘ri yo‘naltira olish pedagogik faoliyat mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi. Motiv va uning nazariy mazmun va mohiyati yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ilmiy adabiyotlarda motivga turli ta’riflar keltirilgan bo‘lib, ular quyidagicha:

Motivatsiya – 1) insonni o‘qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig‘indisi; 2) ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq faoliyatga moyilligi. Salbiy motiv – bu majburlab o‘qitish, lekin bunda o‘quvchining o‘qishga nisbatan qarshiligi hamma harakatlarimizni yo‘qqa chiqaradi. **Motiv** (lot. *moteo* – harakatlantiraman, fransuz. *motiv* – undovchi sabab) shaxsni aqliy harakatga va xulq-atvorni amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarini qondirish bilan uzviy bog‘liq mayl yoki sababiyat. Odamni faoliyatga undovchi asosiy sabab uning ehtiyojlaridir. Binobarin, xatti-harakatga va faoliyatga undovchi shaxsning anglashilgan xususiyati hisoblanuvchi, ehtiyojni aks ettirishning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turki motiv xatti-harakat va faoliyat motivlarning majmuasi **motivatsiya** deyiladi. Motivlar ehtiyoj negizida vujudga keladi, rivojlanadi va shakllanadi. Motiv mazkur negizda o‘sib, barqarorlashib borib,

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

ehtiyojlarning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Motivlar ehtiyojlarning ifodachisi, harakat va faoliyatning boshqaruvchisi bo'lganligi sababli ularni shaxsning dinamik xususiyati tarkibiga kiritish mumkin. Shu bois motivlar shaxsning yo'nalghanligi, maqsadga intilganligi bilan uzviy aloqada bo'ladi. Yo'nalghanlik motivga nisbatan kengroq qo'llashga ega bo'lgan tushuncha hisoblanadi va o'z navbatida motivning shakllanishiga yordam beradi.

Motivlar shaxs faolligini, uning faoliyatini boshqarib turuvchi, tartibga soluvchi muhim omil sifatida qadimdan olimlarimizni qiziqtirib kelgan. Buyuk mutafakkirlarimizning asarlarida ham inson va uning ruhiyati, kechinmalari, maqsadli faoliyatları yuzasidan qarashlari bayon etilgan. Inson faoliyati asosida turli-tuman maqsadlar yotadi. Maqsadlarni esa ma'lum ehtiyojlar yuzaga keltiradi. Ana shu jarayonlar, unda insonga nisbatan inson omilining ta'siri Sharq mutafakkirlari asarlarida o'z aksini topgan. Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Masalan: Al-forobiyning "Fozil odamlar shahri" asari.

Zotan, sharq psixologiyasining qamrovi keng, uni ummonga qiyoslamoq mumkin. Hozir o'rganayotganimiz ana shu ummondan bir qatradir, xolos. Biz o'zligimizga qaytib, mutafakkir bobolarimiz merosidan unumli foydalana bilsak, hech mubolag'asiz aytish mumkinki, ta'lim-tarbiya sohasida dunyoning eng ilg'or mamlakatlariga etib olamiz. Bu har qanday boylikdan afzaldir.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallahsga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga etkazishi kerak. Bu maqsadga etishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rmasligi zarur, deydi. "Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqlaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir". Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqlaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Farobi (879-950) bolalarining fe'l-atvoriga qarab ta'lim-tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullaridan foydalanish kerak deb hisoblagan:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish-o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lim – tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.

2. Tarbiyalanuvchilar o‘zboshimcha, itoatsiz bo‘lsa, qattiq usul qo‘llanilishi lozim.

Ya’ni u avvalgi usulga ilhomlantiruvchi, ikkinchi usulni esa majbur etish usuli deb biladi.

Abu Rayxon Beruniy (973-1048) o‘z asarlarida ta’limning ko‘rgazmaliligi, izchil, maqsadga muvofiq bo‘lishi kerakligini, shaxsning barkamolligi, kishilar o‘rtasidagi ijobjiy axloqiy munosabatlar va olivjanoblik kabi yuksak fazilatlarning mohiyatini asoslab bergan. Bu tamoyillar albatta o‘quvchida o‘qishga bo‘lgan ijobjiy munosabatni shakllantiradi, ya’ni unda o‘qishga nisbatan motiv yuzaga keladi. Uning fikriga ko‘ra, bilim olish uchun o‘quvchilarda avvalo intilish va qiziqish bo‘lishi kerak. Darhaqiqat, nimanidir o‘rganish, tadqiq qilish uchun insonda intilish, harakat va qiziqish bo‘lmasa, u hech narsaga erisha olmaydi. Olimning mazkur fikrlarini fan tilida o‘quv faoliyatiga nisbatan ehtiyoj tug‘ilsagina o‘quv motivlari shakllantirilishi mumkin, deya talqin qilsa bo‘ladi.

Abu Temuriy shaxzoda **Mirzo Ulug‘bek** (1394-1449) fikricha, maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida mudarrislardan o‘quvchilar bilan rasadxonalarda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishni talab etadi, bunga o‘zi rahbarlik qildi. Uning fikricha, talaba-yoshlarning bilim olishni istamasligi mudarrisning nodonligidandir, chunki bunday tarbiyachilar ta’lim usullarini noto‘g‘ri qo‘llash bilan bolalarning bilimga qiziqishini so‘ndiradi. Mudarris, avvalambor, o‘zini tarbiyalashi, bilim va malakalarni egallashi lozim. Allomaning uqtirishicha, o‘quvchi talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Uning ilmlarni o‘rganish yo‘llari haqidagi ta’limoti, shaxsiy na’muna bo‘lish usullari g‘oyatda muhimdir.

Motivga g’arb olimlari tomonidan turlicha ta’riflar keltirilgan. S.L.Rubinshteyn motivning psixologik mohiyati to‘g‘risida shunday yozgan: “motivatsiya – bu psixika orqali hosil bo‘ladigan insonni harakatga undovchi sabablar majmuasidir; motiv – insonni u yoki bu harakatga undovchi kuchdir”. A.Maslouning ta’kidlashicha, motiv deganda ma'lum bir talabni qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning u yoki bu faoliyatga undovchi ichki intilishi. Motivlar sifatida ta’limda samaradorlikka erishishning zarur shartidir. **O‘quv faoliyati motivlari** deganda o‘quv faolligi namoyon bo‘lishiga sabab bo‘luvchi barcha omillar: ehtiyojlar,

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

maqsadlar, ustanovkalar, burch hissi, qiziqishlar va boshqalar tushuniladi. **G.Rozenfeld** o‘qish motivatsiyasining quyidagi omillarini ajratgan.

1. Ta'lif olish uchun o‘qish, faoliyatdan qoniqmaslik yoki o‘rganilayotgan fanga qiziqmaslik.
2. Ma'lum qiziqishlarsiz o‘qish.
3. Ijtimoiy identifikasiya uchun o‘qish.
4. Muvaffaqiyatga erishish yoki muvafaqqiyatsizlikdan qochish uchun o‘qish.
5. Majburlab yoki qo‘rqqanidan o‘qish.
6. Umum qabul qilingan me'yorlarga yoki axloqiy majburiyatlarga asoslangan o‘qish.
7. Hayotda maqsadga erishish uchun ta'lif olish.
8. Ijtimoiy maqsadlarga, talablarga va qadriyatlarga asoslangan ta'lif.

E. Torndayk o‘quv jarayonida bir xil sharoitda yuzaga kelgan jazolash omillari rag‘batlantirish omillaridan ancha samarasiz va kuchsizdir, degan xulosaga keladi. Keyingi tadqiqotlarida esa, rag‘batlantirish, umuman, jalb etish barcha aloqalarni saqlash va kuchaytirish salohiyatiga, jazolash esa tez-tez (lekin har doim ham emas) aloqalarni muayyandan noaniqlikka o‘zgartirish xususiyatiga egaligini ta'kidlab o‘tadi. Torndayk bolaning ijobiy o‘quv motivatsiyasini uni jazolash orqali hosil qilib bo‘lmasligini, bunday chora-tadbirlar bolada faqatgina salbiy motivatsiyani vujudga keltirishini e’tirof etgan. O‘z tadqiqotlaridan kelib chiqib, Torndayk real inson turli rejadagi o‘z ehtiyojlari hamda talablari orqali amalga oshiradigan, uzoq vaqt davom etadigan jarayon hisoblangan o‘quv faoliyatiga aloqador bo‘lgan umumiyo ko‘rinishdagi xulosalarga keladi va bu xulosalar, motivlashtirish nuqtayi nazaridan qaralganda, mustahkamlashning alohida bitta tizimiga sig‘maydi.

Mazkur masalalarni ilmiy-pedagogik nuqtayi nazaridan o‘rganish, ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini e’tiborga olish hamda mustaqil bilim egallashlari uchun yetarli shart-sharoit yaratib berish zarurati, amalga oshirish va nazorat qilish bo‘yicha kasbiy-pedagogik tayyorgarligining zamon talablari darajasida emasligi, talabalarda mustaqil ta’lim olish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarining yetarli darajada shakllanmaganligi, o‘quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalarning yetarli emasligi natijasida ularning mustaqil holda qaror qabul qilish va o‘z nuqtayi nazarini

himoya qila olish ko‘nikmalarini to‘liq shakllanmaganligi muammoning nihoyatda dolzarbligini ko‘rsatdi. An’anaviy ta’limda talabalarni tayyor bilimlarni mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni rivojlanishiga olib kelmaydi. Bugungi kunda o‘qituvchilarimiz faoliyatida ilg‘or (novatorlik harakatlari) tajribalardan yetarlicha darajada foydalanish kompetentligi kamligi ta’limning innovatsiyalashushi bilan kirishib keta olmayapti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi qarorida talabalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltiradigan o‘qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, talabalarning mustaqil ta’lim olish kabi masalalarga ustuvorlik berish asosiy ish etib belgilangan. Albatta, talabalarning nazariy va amaliy mustaqil ta’lim olishlari uchun katta imkoniyatlар mavjud. Biroq ko‘p hollarda o‘quv-tarbiya jarayonida talabalarda mustaqil ta’lim olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish masalasiga dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmaydi, mustaqil ta’lim mazmunini tahlil etish va ishlab chiqishga zamonaviy nuqtayi nazardan yondashilmaydi, uning samarali metod, shakl hamda vositalaridan foydalanishga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Oliy ta’lim muassalarida o‘quv motivatsiyasi shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi bir qancha muammolar mavjud.

Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni o‘quv-tarbiya mashg‘ulotlari, ya’ni o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik muloqot ko‘rinishida amalga oshiriladi. Ularning ushbu faoliyatlarini bevosita pedagogik texnologiyaning asosiy jarayonini hosil qiladi. Ta’lim texnologiyalari shaxslararo munosabatlar, muloqot, hamkorlik, o‘zaro ta’sir va shu kabi rivojlanishiga ko‘maklashishi lozim.

An’anaviy ta’lim pedagogik jarayonda o‘qituvchining subyekt sifatida, o‘quvchini esa obyekt sifatida ishtirokiga asoslangan. Pedagogik hamkorlik ta’lim jarayoni subyektlari faoliyatida yangicha sifat o‘zgarishlarining shakllanishi va namoyon bo‘lishiga ko‘maklashadi. Pedagogik hamkorlikning muhim jihat shundaki, u ta’lim jarayoni subyektlari faoliyatini muayyan tarzda uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Ijodiy guruhlar, o‘yin jamoalarida ularning o‘zaro ta’sir jarayonida o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil qilish o‘qituvchilar uchun dolzarb sanaladi.

O‘qituvchi pedagogik muloqot qonuniyatlarini puxta bilishi, kommunikativ qobiliyat va kommunikativ madaniyatga ega bo‘lishi talab qilinadi. Ta’limda hamkorlik pedagogikasining instrument sifatida qo‘llanilgan usullardan mavzu yuzasidan hayotiy voqeani qiziqarli tarzda hikoya qilib berish, o‘quvchilar bilan

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

ochiq va do'stona suhbatlashish, ularning bilimlariniadolatli baholash, ijodiy yutuqlarini rag'batlanirish, shaxsiy namuna ko'rsatish, o'quvchilar uchun mashhur kishilar bilan qiziqarli suhbatlar uyushtirish, yagona muammo yechimini birlashib izlash kabilarni keltirish mumkin. Aniq (konkret) pedagogik texnologiyalar sifatida asosiy maqsadlar sifatida quydagilarni ko'rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tursunova, Z. (2023). METHODOLOGY OF MOTHER TONGUE TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS. *Modern Science and Research*, 2(9), 350-352
2. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 424-428.
3. Ne'matovna, T. Z. (2024). PEDAGOGIKA FANINING ILMIYTADQIQOT METODLARIDAN FOYDALANISH. *PEDAGOG*, 7(4), 451-457.
4. NE'MATOVNA, T. Z. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 207-212.
5. Ne'matovna, T. Z. (2024). DEVELOPMENT OF STUDENTS'LINGUISTIC COMPETENCIES IN" MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY" LESSONS OF THE 3rd GRADE. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 114-118.
6. Ne'matovna, T. Z. (2024). FORMATION OF MOTHER LANGUAGE COMPETENCES IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, 2(2), 453-461.
7. Tursunova, Z. (2023). USING INNOVATIVE AND INTERACTIVE METHODS IN NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY CLASSES. *Modern Science and Research*, 2(10), 777-779.
8. Ne'matovna, T. Z. (2024). IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY OF FORMATION OF STUDENTS'LINGUISTIC COMPETENCES IN PRIMARY-GRADE MOTHER TONGUE CLASSES. *International journal of artificial intelligence*, 4(03), 459-461.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

9. Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF ADOLESCENT EMPATHY. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 132–134.
10. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. *Modern Science and Research*, 2(10), 333-336.
11. Kozimova, N. A. (2023). BUGUNGI TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY O 'QUVCHI SHAXSINING IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK JIHATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 44-46.V
12. Abduqahhorovna, N. K. (2023). PSIXOLOGIK KONSULTATSIYAGA MUROJAAT QILUVCHI OTA-ONALARING FARZAND TARBIYASI MUAMMOLARINI O 'RGANISHDA HADISLARDAN TERAPIYA SIFATIDA FOYDALANISH.
13. Kozimova, N. (2023). USE OF HADITHS AS THERAPY IN STUDYING THE PROBLEMS OF RAISING CHILDREN OF PARENTS APPLYING FOR PSYCHOLOGICAL CONSULTATION. *Modern Science and Research*, 2(9), 61-63.
14. Madina O'ktamovna Shukurova. (2024). " Growing children's speech in the process of introducing them to the environment and nature ". *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 130–135.
15. Shukurova, M. (2024). OILADA FARZAND TARBIYASIDA OTANING ROLI. ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O 'RNI, 3(2), 162-167.
16. Hikmatovna, M. N. (2023). Goals and Tasks of Education. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 360-362.
17. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.
18. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 386-388.
19. Mahmudova, N. H. (2023). Influence of family environment on personal socialization. *American Journal of Public Diplomacy and International*

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

Studies (2993-2157), 1(10), 440-446.

20. Nigora Hikmatovna Mahmudova. (2023). BASIC TASKS OF TEACHING THE SCIENCE OF "EDUCATION" IN PRIMARY GRADES. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 447–452.
21. Hikmatovna, M. N. (2024). Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 31-43.
22. Mahmudova Nigora Hikmatovna. (2024). INFLUENCE OF FAMILY ENVIRONMENT ON PERSONAL SOCIALIZATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 164–170.
23. Hikmatovna, M. N. (2024). CONTENT OF THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(2), 88-94.
24. Hikmatovna, M. N. (2024). Teaching of specialized subjects in primary education. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 453-460.
25. Hikmatovna, M. N. (2024). Boshlang'ich ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 445-452.
26. Махмудова Нигора Хикматовна. (2024). Преподавание профильных предметов в начальной школе . *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 436–444.
27. Xalilova Shaxlo Ravshanovna. (2023). Globallashuv sharoitida o'quvchilar aqliy-ruhiy qiyofasini shaklantirishda muloqot uslublarining ahamiyati. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 100–106.
28. Xalilova Shaxlo Ravshanovna. (2023). Bo'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasining zamonaviy modellari va ularni qo'llash metodlari. *Journal of Universal Science Research*, 1(9), 223–234.
29. Xalilova Shaxlo Ravshanovna. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131–139.
30. Xalilova Shaxlo Ravshanovna. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH, 1(8), 131–139.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8239719>

31. Ravshanovna, X. S. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR O 'RTASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO 'YILADIGAN TALABLAR. Лучший инноватор в области науки, 1(1), 814-819.

32. XALILOVA, S. (2021). JAHHON PEDAGOGIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MULOQOT VA MILLIY PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARIGA TRANSFORMATSIYASI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

33. Xalilova Shaxlo Ravshanovna. (2023). O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri va ahamiyati. Journal of Universal Science Research, 1(10), 803–816.

34. Ravshanovna, K. S. (2023). Factors Affecting the Formation of a Positive Attitude to the Learning Activity in Students. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 116–122.

35. Akbarovna, I. S. (2023). NEGATIVE AND POSITIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 192-197.

36. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 184-191.

37. Akbarovna, I. S. (2023). THE DEVELOPMENT OF CONSCIOUSNESS AND THE TEACHING OF CONCEPTS OF THE UNCONSCIOUS TO STUDENTS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 107-114.

38. Сайфуллаева, Н. Б., & Сайдова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. *Научный журнал*, (6 (40)), 101-102.

39. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1), 305-307.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

40. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. *Miasto Przyszłości*, 35, 388-390.
41. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 102-107.
42. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 383-388.
43. Сайфуллаева, Н. Б. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ КЛАССНЫХ УРОКОВ. *Вестник науки и образования*, (5-3 (118)), 40-42.
44. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.
45. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI.
46. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 424-428.
47. Hojiyeva, N. (2023). THE SUBJECT AND TASKS OF THE METHOD OF TEACHING THE MOTHER TONGUE IN PRIMARY GRADES. *Modern Science and Research*, 2(10), 855-857.
48. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.
49. Bahodirovna, H. N. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O 'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. *PEDAGOGS* jurnali, 1(1), 209-209.
50. Bahodirovna, H. N. (2023). Methodological Foundations of Teaching the Science of " Education" in Primary Grades. *American Journal of Public*

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 369-372.

51. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).
52. Рўзиева, М. Ё. (2020). ТУРКИЙ ХАЛҚЛАР ФОЛЬКЛОРИДА РАНГ ИФОДАЛОВЧИ СЎЗЛАР ВА УЛАРНИНГ СЕМИОТИК ТАҲЛИЛИ. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1).
53. Рузиева, М. Я. (2019). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЖАНРОВ ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ. *ББК 71.0 И74 Редакционная коллегия Ответственный редактор*, 46.
54. Рузиева, М. Я., & Эргашева, Т. Ш. (2022). МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНЫХ СЛОВАРЕЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Вестник науки и образования*, (2-2 (122)), 29-32.
55. Sobirovna, S. Y. (2023). O 'YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(3), 93-99.
56. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(2), 87-92.
57. Yulduz, S. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAKI BOLALARDA EKOLOGIK TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 124-129.
58. Gafurovna, L. S. (2023). Mechanism for the Use of Digital Educational Resources by Future Primary School Teachers. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 123-128.
59. Gafurovna, L. S. (2023). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHISINING RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 300-309.
60. Gafurovna, L. S. (2023). THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL LEARNING RESOURCES IN PRIMARY EDUCATION. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).